

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI HUZURIDAGIOLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA
RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VAULARNING
MALAKASINI OShIRISHNI TAShKIL ETISH
BOSh ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGIPEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OShIRISH TARMOQ MARKAZI**

«Internet texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish» modulidan

O' Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Tuzuvchi: prof. A.Z.Mamatov

Toshkent 2015

Mundarija

| | |
|--|-----------|
| ISHCHI O'QUV DASTURI..... | 3 |
| 1-mavzu. Internetda web sahifa yaratish imkoniyatlari, asosiy tushunchalari va uni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar..... | 7 |
| 2-mavzu. Masofali ta'lif. Masofali o'qitish tushunchalari va uning ta'lif tizimidagi o'rni, kontseptsiyasi, rivojlantirish bosqichlari..... | 11 |
| 3-mavzu. Masofaviy ta'lifning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari. | 18 |
| 4-mavzu. Internet va masofali o'qitishni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan yangiliklar. | 22 |
| 5-mavzu. Masofaviy ta'lifning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari. | 22 |
| TEST SAVOLLARI..... | 23 |

IShChI O'QUV DASTURI

Oliy ta'lif muassasalari umumkasbiy va maxsus fanlardan dars beruvchi pedagoglar malakasini oshirish kursining **maqsadi** – pedagogik faoliyatida nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lif-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Oliy ta'lif muassasalari umumkasbiy va maxsus fanlardan dars beruvchi pedagoglar malakasini oshirish kursining **vazifasi** – pedagogik kadrlar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, ta'lif va tarbiya haqidagi hujjatlar, pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari, amaliy xorijiy til, xorijiy ta'lif tajribasi, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalash, pedagog kadrlarning malakasini oshirish sifatini baholash ishlari, yengil sanoat texnologiyasidagi innovatsiyalar va dolzarb muammolar mazmunini o'rganishga yo'naltirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ta'lif sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni;
- "Ta'lif to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa qonun hujjatlarining qabul qilinishi, mohiyati va ahamiyatini;
- Internetda web sahifa yaratish imkoniyatlarini;
- Internetda web sahifa yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalarni;
- Masofali ta'lif. masofali o'qitish tushunchalarini;
- Internet va masofali o'qitishni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan yangiliklarni;
- pedagogik mahorat asoslarini **bilishi** kerak.

Modulining o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Mazmuni o'quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda ularning nazariy asoslarini ochib berishga, pedagoglarning ta'lif-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda me'yoriy-huquqiy asoslar bo'yicha umumiylaytirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliv ta'limdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda ta'lim-tarbiyaning milliy g'oya negizlariga tayangan holda amalga oshirish konsepsiyasida o'z ifodasini topadi.

Modul bo'yicha bo'yicha soatlar taqsimoti

Ushbu o'quv modulida tinglovchining o'quv yuklamasi – 10 soat bo'lib, shundan amaliy mashg'ulotlar 6 soatni, Ko'chma mashg'ulot 2 soat hamda mustaqil ta'lim 2 soatni tashkil etadi.

Amaliy va ko'chma mashg'ulotlar mazmuni

| № | Modul birliklari nomi va tarkibi | Mashg'ulot turi | Soatlar miqdori |
|-------------|---|------------------------|------------------------|
| 1 | Internetda web sahifa yaratish imkoniyatlari, asosiy tushunchalari va uni yaratishda foydalilaniladigan dasturiy vositalar | Amaliy | 2 |
| 2 | Masofali ta'lim. masofali o'qitish tushunchalari va uning ta'lim tizimidagi o'rni, kontseptsiyasi, rivojlantirish bosqichlari | Amaliy | 2 |
| 3 | Masofaviy ta'limning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari | Amaliy | 2 |
| 4 | Internet va masofali o'qitishni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan yangiliklar | Ko'chma mash/ulot | 2 |
| Jami | | | 8 |

Mustaqil tayyorgarlik mavzulari

| № | Modul birliklari bo'yicha mustaqil tayyorgarlik mavzulari | Soatlar miqdori |
|----------|--|------------------------|
| 1. | Masofaviy ta'limning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari | 2 |
| | Jami | 2 |

Amaliy mashg‘ulot mavzusi

“Internet texnologiyalaridan o’quv jarayonida foydalanish” modulida amaliy mashg‘ulotlar Internetda web sahifa yaratish imkoniyatlari, asosiy tushunchalari va uni yaratishda foydalilaniladigan dasturiy vositalar. Masofali ta’lim. Masofali o’qitish tushunchalari va uning ta’lim tizimidagi o’rni, kontseptsiyasi, rivojlantirish bosqichlari. Masofaviy ta’limning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari. Internet va masofali o’qitishni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan yangiliklar bo'yicha malaka ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lum mazmuni

Masofaviy ta’limning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari masofali ta’limda interaktiv texnologiyalardan foydalanish. Masofaviy ta’lim berishda axborot manbalaridan foydalanish malaka ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

KALENDAR REJA

| Nº | Mavzular | Mashg’ulot turi | Soati | O’kaziladigan muddati |
|-----------|---|------------------------|--------------|------------------------------|
| 1 | Internetda web sahifa yaratish imkoniyatlari, asosiy tushunchalari va uni yaratishda foydalilaniladigan dasturiy vositalar | Amaliy | 2 | Uchinchi hafta |
| 2 | Masofali ta’lim. masofali o’qitish tushunchalari va uning ta’lim tizimidagi o’rni, kontseptsiyasi, rivojlantirish bosqichlari | Amaliy | 2 | Uchinchi hafta |
| 3 | Masofaviy ta’limning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari | Amaliy | 2 | To’rtinch hafta |
| 4 | Internet va masofali o’qitishni | Ko’chma | 2 | |

| | | | | |
|--|--|-----------|----------|-----------------|
| | rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan yangiliklar | mash/ulot | | To'rtinch hafta |
| | Jami | | 8 | |

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 25-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lif muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-1533-sloni Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 278-sonli Qarori.

Asosiy adabiyotlar:

1. Aripov M. Internet va elektron pochta asoslari. – T., 2000. – 218 b.
2. Guseva A.I. Rabota v lokalnix setyax. – M., 1996. – 218 s.
3. Sattarov I., B.G'.Qodirov, U.Sh.Begimqulov. Kompyuterda laboratoriya ishlari. – T.: TDPU nashriyoti, 2002. – 143 b.
4. Oripov M. "Internet" va eletron pochta asoslari, Toshkent, 2000.
5. Eshmatov S. Elektron jadvallar, Toshkent, 2006.
6. Gulomov S. S. va boshqalar Axborot tizimlari va texnologiyalari. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik Toshkent 2000.

Internet ma'lumotlarni:

1. http://office.microsoft.com/ru-ru/word-help/HP010368778.aspx#_Toc287271760
2. <http://office.microsoft.com/en-us/word-help/create-a-new-document-using-a-template-HA102840145.aspx?CTT=5&origin=HA102809673>

1-mavzu. Internetda web sahifa yaratish imkoniyatlari, asosiy tushunchalari va uni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar.

Amaliy mashg'ulot – 2 soat

Reja:

1. Internetda Veb sahifalar yaratish texnologiyasi
2. Veb sahifalar fratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar

Kalit so'zlar: Internet, Web, CERN, HTTM, HTML, Element, Tega, Atribut, Giperilova, Freym, fayl, sahifa, Skript, brouzer, CGI, Programma, kod, Sayt, agent, Yuklash, URL.

Hozirgi paytda ko'pgina tashkilotlar to'liq tushunib etdilarki, internetda o'z Web-saytlarini tashkil etmaslik ushbu kiberfazoda mavjud bo'lmaslikka olib keladi va demak, bunday tashkilot rivojlanishdan ancha orkada koladi. Shuning uchun ham turli xil mamlakatlarning ilgor intelligentsiya vakillari internetni insoniyat jamiyatining yangi informatsion yashash muxiti deb tushunadilar va bu bilan unchalik katta xatoga yo'l ko'y maydilar, albatta.

Kerakli ma'lumotlarni ko'rishning gipermurojaat deb ataluvchi usul bilan kompyuter tarmoqlarida joylashtirish WWW-World Wide Web-Jaxon axborot tarmo'i (butun dunyo o'rgimchak to'ri-vsemirnaya pautina) deb atalgan. 1989 yili CERN (Evropa elektron zarralar fizikasi labaratoriysi) tadqiqotchilari tomonidan turli ilmiy guruxlar orasida o'zaro aloqani tashkil qilish maqsadida ish boshladilar. 1993 yildan boshlab WWW Internet ning eng ommaviy resurslaridan biriga aylandi.

WWW da turli yo'llar orqali tegishli ma'lumotga etib borish va uni ko'rish imkoniyati bor. WEB sahifalar HTTM – "gipermatnlarni belgilash tili"da yozilgan hujjat sifatida tayyorlanadi. Kalit so'zlar deb nomlangan so'zlar orqali boshqa ma'lumotlarga murojaat qilish-gipermurojaat deyiladi. Bunday giperaloqalar faqat so'zlar emas, balki tasvirlar, grafiklar va ularning qismlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Gipermatnli hujjatlarni qidirish, topish va ekranda tasvirlash uchun sharxlovchi-brouzerlardan foydalaniladi.

HTML formatida tayyorlangan elektron hujjat HTML-hujjat deb ataladi. Agar bu hujjat Internet orqali tarqatilsa WEB-hujjat, undan foydalanish haqida gap borsa WEB-sahifa deb ataladi.

Bitta muallif yoki WWW ga tegishli bo'lган bir gurux o'zaro "giperbo/lanishlar" bilan aloqador bo'lган WEB-sahifalar majmuasi WEB uzel (tugun) yoki sayt deb ataladi.

Web - Internet tarmoqlarida joylashgai fayllar to'plami bo'lib, ularning soni soat sayin ko'payib bormoqda. Bu fayllarda ma'lumotlarning turli xillarini: matn, grafik, tasvirlar, video, audio ma'lumotlarini uchratish mumkin.

Gipermatnlarni belgilash dasturiy tili (yoki **HTML** tili)da bir kancha maxsus nomlar va yangi terminlar bo'lib, ularni kiskacha tushuntirib o'tish maksadga muvofikdir.

Element (element) HTML tilining tuzilmasi bo'lib, har kanday **Web-** sahifa shunday elementlar to'plamidan iboratdir. Gipermatn tashkil kilishning asosiy goyasi elementlarning bir biriga bo/liqligini ta'minlab berishdir.

Tega (tag) elementning boshlangich va oxirgi belgilaridir (yoki markerlari). Tegalar turli xil elementlarning ta'sir qilish chegaralarini aniqlab, bir elementni boshqalaridan ajratib turadi. **Web-** sahifa matnida tegalar burchakli kavslar (< va >) orasiga olinadilar va oxirgi tega doimo kiyshik chiziq (/) bilan belgilanadi.

Atribut (attribute) elementning parametri yoki ko'rsatgichi bo'lib, u standart nomga ega bo'lgan o'zgaruvchidir. Demak, unga standart yoki istalgan turdag'i kiymatlar berilishi mumkin. Atributlarning simvolli kiyatlari ko'pchilik xolatlarda kavslar orasiga olinishi kerak bo'ladi. Atributlar boshlangich tegalar ichida joylashgan bo'lib, bir birlari bilan probellar (bo'sh joylar) orqali ajratilgan bo'ladilar.

Giperilova (Hypertext) ajratilgan matn bo'lagi bo'lib, u boshqa fayl yoki ob'ektga ko'rsatgich sifatida xizmat qiladi. Giperilovalar bir hujjatda boshqasiga o'tish imkoniyatini yaratib beradilar.

Freym (frame) ushbu termin ikki xil ma'noga ega. Birinchi ma'nosi matnni yukoriga-pastga yoki chapga-o'ngga surish elementlariga ega bo'lgan hujjat maydonini bildirsa, ikkinchi ma'nosi murakkab (animatsion) grafik fayldagi birorta tasvirni anglatadi. Ba'zi paytlarda freym so'zi o'rniga "kadr" yoki "ramka" so'zleri ham ishlatilishi mumkin.

HTML fayl yoki HTML sahifa - HTML dasturiy tili asosida hosil qilingan gipermatnli hujjatni anglatadi. Bunday fayllar ko'pincha **.htm** yoki **.html** kengaytirgichli ko'rinishda bo'ladi. Gipermatn taxrirlagichlarida va brouzerlarda bunday fayllar "hujjat" degan umumiyl nom bilan ataladilar.

Skript yoki stsenariy (script) **Web-** sahifa tarkibiga uning imkoniyatlarini oshirish maksadida kiritiladigan maxsus dastur bo'lib, ko'pincha **Web-** brouzer unga duch kelganda "Sahifada stsenariylarni bajarishga imkon berilsinmi?" degan savolni beradi. Bunda u skriptlarni nazarda tutadi.

Kengaytirgich (extension) - HTML dasturiy tili tarkibiga kirmaydigan, ammo yangi formatlashtirish effektini hosil qilishga imkoniyat beradigan element.

CGI (Common Gateway Interface) – Serverda ishlab turgan xolatda **Web-** sahifalarning imkoniyatlarni oshirishga imkon beradigan dasturlar to'plamining

umumiy nomi. Masalan, ushbu turga mansub dasturlar yordamisiz interaktiv sahifalarning yaratilishi mumkin bo’lmaydi.

Programma kodi yoki **kod** deb “*dastur matni*” tushunchasiga aytildi.

HTML kodi uning barcha elementlari va atributlari ko’ringan xolatda gipermatnli hujjatni namoyon qiladi.

Sayt yoki **Web-sayt (site)** bir insonga yoki tashkilotga tegishli **Web-sahifalar** to’plamidir.

Brouzer (browser) **Web-sahifalarni** ko’rib chikish uchun ishlatiladigan dasturdir. Brouzerlarning turli tuman xillari mavjud va ular foydalanuvchiga xilma-xil turfa imkoniyatlar yaratib beradi.

Foydalanuvchi agent (user agent) deganda mijoz kompyuterda ishlaydigan brouzer yoki boshqa dasturga tushuniladi.

Yuklash (downloading) jarayoni deganda fayllarni serverdan mijoz kompyuterga nusxalashga tushuniladi.

URL (Uniform Resource Locator) yoki resurslarning universal ko’rsatgichi Internetdagi biror bir ob’ektning adresi (manzili) bo’lib, misol sifatida quyidagini keltirishimiz mumkin:

http://www/. Nomi . domen/fayl nomi

Bu erda **nomi** – adresning sayt egasining nomini ko’rsatadigan kismi, **domen** esa Internetning biror bir katta kismi nomini ko’rsatadi (masalan, mamlakatni, faoliyat yo’nalishini va boshqalarni). **URL** konkret **Web-sahifani** yoki giperlovalardagi grafik fayllarni ko’rsatish uchun hamda faylning yoki **Web-sahifaning** joylashuvini aniqlash uchun ishlatiladi.

Monitor ekranidagi har bir rang uch xil - kizil, yashil va ko’k ranglarning birlashuvi asosida hosil bo’ladi.

Rang kanali deb monitor ekranidagi kizil, yashil va ko’k ranglarning intensivligiga tushuniladi. Har bir pikselning rangi esa ushbu uch ranglarning kombinatsiyasi orqali aniqlanadi.

HTML -hujjatning ijodkori u bilan ishlash usulini ham tanlash imkoniyatiga ega. Gipermatn bilan xatto **MS DOS** turkumiga mansub va **ASC II** –fayllarini ochish imkoniyatiga ega bo’lgan istalgan matn muharririda ishlash mumkin. Gipermatn yaratish uchun brouzerni ham ishlatish mumkin. Ushbu har bir programmaviy maxsulot **Web-sahifani** taxrirlash rejimiga egadir. Buning uchun kompyuterda o’rnatilgan biror bir matn muharriridan foydalanish mumkin. Bundan tashkari brouzerlarning o’zlari ham gipermatn muharrirlariga egadirlar. Gipermatn muharrirlarining fakatgina **Web-sahifalar** hamda ularda xilma xil tovush va vizual effektlar hosil qilish uchun ishlatishi mumkin bo’lgan turlari ham mavjud. Gipermatn hosil qilishning usuli uning kompyuterda ishlatilayotgan platformaga umuman va absolyut bo/liq bo’lmasligini ta’minlaydi. Masalan, agar Siz **Windows**

operatsion sistemasi boshqaruvida ishlayotgan kompyuterda **Web-sahifa** yaratsangiz, serverning administratori ushbu fayllarni **Macintosh** yoki **UNIX** operatsion sistemalari boshqaruvidagi kompyuterlarda ham bemalol ishlata oladi.

Elektron o'qitish tizimi, unda dasturiy vositalar.

Kadrlar tayyorlashning sifatini yanada yaxshilash, ta'limga to'risidagi konunni tula amalga oshirish uchun ta'limning turli shakllaridan foydalanish zarur bulib kelyapti.

Bu borada xukumatimiz tomonidan ko'plab ishlar olib borilmoqda. Shularga Respublikasizda yangi rivojlangan, "masofaviy ta'limga" deb nomlangan, ta'limga turi misol qilishimiz mumkin. Ta'limning bu turi shu paytgacha mavjud bo'lgan ta'limga turlaridan uzining ayrim ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi.

Bu ta'limga turini paydo bo'lishiga asosiy sabab deb informatsion va kommunikativ texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va ular asosida printsiplar yangi ta'limga texnologiyalar (internet texnologiyalar) yaratilishini hisoblash mumkin. Internet texnologiyalardan foydalanish bizga o'quv materiallarni cheksiz va juda arzon tarqatish va ko'paytirish, hamda uni o'quvchilarga tezkor va aniq etkazish imkoniyatlarini yaratib berdi. Shu bilan birga ta'limga interaktiv bo'lganligi sababli, o'quvchining o'z ustidan mustaqil ishlashning o'rni juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Internet nima?
2. Brouzer nimaligini tushuntiring?
3. Giperilova tashkil qilishni tushuntiring.
4. Sayt va uning ahamiyati?
5. Internet va uning afzallik va kamchiliklari

Adabiyotlar:

1. Aripov.M., A.Xaydarov "Informatika asoslari", Toshkent-2002
2. Sattarov "Informatika va axborot texnologiyasi", Toshkent-2002
3. A.R.Maraximov,S.I.Raxmonkulova«Internet va undan foydalanish asoslari»T-2001y.
4. Aripov M. Internet va elektron pochta asoslari.- T.; 2000 i. 218 b.
5. Oripov M. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari, Toshkent, 2001.

2-mavzu. Masofali ta’lim. Masofali o’qitish tushunchalari va uning ta’lim tizimidagi o’rni, kontseptsiyasi, rivojlantirish bosqichlari.

Amaliy mashg’ulot – 2 soat

Reja:

1. Masofali ta’lim tushunchasi
2. Masofali o’qitish tizimining ta’lim tizimidagi o’rni

Kalit so’zlar:

Masofaviy ta’lim, axborot, informatsiya, ta’lim, masofadan o’qitish, internet, audio, video, onlayn, elektron kutubxona, multimedia, cgi, html, javascript, web, kaskadli jadval, model.

Masofaviy ta’lim o’zi nima? Uning qanaqa ijobiy va salbiy tomonlari bor? O’zbekiston Respublikasida undan foydalanish zarurati bormi? Masofaviy ta’limni tashkil qilish uchun nima kerak?

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o’zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o’zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqeа-hodisalar sodir bo’lmoqda. Har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, ishxona va ta’tilda ta’qib etadi. Inson informatsiya ta’siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o’rganish informatsiyalarni yi/ish va o’zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma’lum davr ichida shaxs tomonidan o’zlashtirilgan informatsiyalarning ko’p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo’l ochish, ta’limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish - bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta’lim tizimida sezilarli o’zgarishlar ro’y bermoqda. Ta’lim tizimida Masofadan o’qitish uslubi shakllari qo’llanilmoqda. Masofadan o’qitish uslubi - bu sirtqi o’qishning yangi shaklidir. Masofadan o’qitish bu mustaqil o’qishdir. Mustaqil o’qish insonning mustaqil fikrlash, xolatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Masofadan o’qitishning yana bir afzalligi shundaki, unda o’quvchi o’ziga qulay vaqtida va hattoki ishdan ajralmagan holda o’qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqagan. Ko’pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o’zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar.

Masofadan o’qitishning yana bir afzallik tomoni unda o’qish muddatini o’quvchi o’zi belgilaydi, ya’ni tinglovchi ixtiyoriy paytda o’qishni boshlaydi, materiallarni o’qituvchi nazaratida o’zlashtiradi. O’zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O’quvchi berilgan programmani qanchalik


tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Dasturni o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

Masofadan o'qitishda odatda ishlayotganlar onalar, o'qiyotganlar biror mutaxxassislikni egallash yoki malakasini oshirish maqsadida o'qiydi. Bu uslub nogironlar uchun juda qulaydir. Masofadan o'qitishda hattoki maxbuslar ham o'qish imkoniga ega.

Masofadan o'qitish uchun tinglovchilar uchun auditoriyalar, yotoxonalar zarur emas. Masofadan o'qitishda moliyaviy harajatlar asosan o'quv uslubiy materiallar tayyorlash uchun, maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi. Bu xarajatlarning asosiyligi qismi bu jarayonni tashkil etish bosqichida sarflanadi. Keyinchalik moliyaviy harajatlar kamayadi. Shuning uchun tinglovchilar sonini oshishi bilan o'qish narxi ham pasayadi. Masofadan o'qitishda asosiyligi e'tiborni o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. Chunki o'quv-uslubiy materiallarning sifati masofadan o'qitish sifatining eng asosiyligi omillaridan biridir. O'quv-uslubiy material qanchalik tushunarli va batafsil bo'lsa, shunchalik u o'quvchiga foydali bo'ladi. Ya'ni material uslubiy jihatdan puxta bo'lmo/i zarur.

Masofadan o'qitish nima?

Masofadan o'qitish bu Internet tarmo/i orqali sizga qulay bo'lgan vaqtida o'qishdir. Masofadan o'qitishning tarkibiy belgilari: o'qituvchi, o'quvchi, kommunikatsiyadir.



Masofadan o'qitish uslubiy materiallari quyidagilardir:

- Darslik
- Audio va video darsliklar
- Onlayn darslar (Internet sahifa)
- Elektron kutubxonalar
- Testlar
- Multimedia - elektron darsliklar

Masofadan o'qitish qanday amalga oshiriladi. Dunyoda ko'pgina universitetlarda va o'quv markazlarida bu usul mavjud. Kerakli manzilni Internetdan topishingiz mumkin.

Manzilga kirib bu o'qish tinglovchisi bo'lish uchun maxsus shaklni to'ldirishingiz zarur. Odatda avval kursning va o'qish tartibi tavsifi bilan tanishib chiqish mumkin. Keyin shakldagi satrlarni to'ldirib, kredit kartochkangiz raqamini kiritishingiz zarur.

Kursga kirish tartibi turlicha, bu mutaxxassilikka bo/liq.

O'qish tartibi quyidagicha: o'qituvchi kurs bilan tanishtiradi va topshiriqlar beradi. Siz ko'rsatilgan manbalar bilan ishlab topshiriqlarni bajarasiz va o'qituvchiga yuborasiz. O'qituvchi uni tekshirib, javobni sizga qaytaradi. Zarur holda ko'rsatmalar beradi. Shu tartibda kurs mavzulari o'rganib chiqiladi. Muzokara asosan elektron pochta orqali amalga oshiriladi. Telefon tarmogidan ham ba'zan foydalaniladi. Bosma o'quv materiallari pochta orqali yuboriladi. O'qish jarayonida tinglovchi darsliklardan, elektron kutubxona va darsliklardan, elektron forumlardan, videokonferentsiyalardan foydalanadi. Bunda o'qish individual shaklda olib boriladi va o'qituvchi o'quvchining qobiliyati va xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitadi. Bu individuallik o'quvchida qiziqish uy/otadi va uni o'qishda aktivlikka ragbatlantiradi.

Masofali o'qitishning asosiy shakllari.

Respublikamiz Oliy va O'rta Maxsus bilim yurtlarida masofadan o'qitishni tatbiq etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Masofadan o'qitish uslubi haqida batafsil www.dl.uz sahhifasida tanishingiz mumkin.

Internet orqali, bepul yoki imtiyozli xizmat ko'rsatuvchi masofaviy o'qitish kurslari haqida ma'lumotlar

Rossiya axborotlashtirilgan jamiyatni rivojlantirish instituti va Moskva davlat elektronika va matematika institutlarining «Masofaviy kurslar yaratish texnologiyasi va metodikasi» amda «Masofaviy o'kitish metodikasi» kurslari.

<http://www.esavu.iis/htf>

Rossiya Axborot Texnologiyalri Internet universitetining bepul kurslari:

- a. Mikroprotsessor texnikasi asoslari;
- b. Axborot xavfsizligi asoslari;
- v. Axborot xavfsizligi standartlari;
- g. Axborot xavfsizligining kriptografiyasi asoslari;
- d. CGI ga kirish;
- e. HTML ga kirish;

j JavaScript ga kirish;
z. Web texnologiya asoslari;
i. Kaskadli jadvallar usulini qo'llash;
k. Axborotlarni uzatish tarmoqlari asoslari;
l. SQQ dasturlash tili;
m. Dasturlash nazariyasiga kirish;
n. Funktsional yondoshuv;
o. Ma'lumotlar bazasi ilovalarini loyihalash.
masofaviy kurslari bo'yicha professor-o'kituvchilarning malakasini oshirish.

<http://www.Intuit.ru>

Quyidagi saytlardan o'kuv jarayonida foydalanish mumkin:

<http://www.Translate.ru> – avto tarjimon.

<http://www.Google.ru> – avto tarjimon.

<http://www.Ugatu.ac.ru> – turli fanlardan elektron darsliklar, informatika fanidan test savolar majmuasi va boshqalar.

http://www.Skgtu.ru/expo/exponent.php?e_idq1 – Optimal dasturlash komplekslarini loyihalash bo'yicha Elektron darslik.

<http://www.Infomicer.net/price/KGB.htm> – Elektron darsliklar, entsiklopediyalar, multimedia materiallari va boshqalar.

http://www.cde.spbstu.ru/cd_ed/method_rec/conten.htm/ - o'kuv kurslari yaratish metodikasi.

http://www.Museum.ru/cpik_katalog_CD-ROM/cd.asp?UIDq530 – multimediali ishlarning katalogi.

http://www.Cde.spbstu.ru/CD_ED/method_rec/conten.htm/ - Masofaviy o'kitish uchun elektron kurslar yaratish metodikalari.

http://www.Curator.ru/e_books/index.htm

<http://www.Cnit.ssau.ru/ito/index.htm> – Axborot texnologiyalari bo'yicha masofaviy o'kitish kursi (bepul).

http://www.It_stady.ru – Axborot texnologiyalarini bo'yicha masofaviy o'kitish kurslari.

<http://www.Machaon.ru/distant/mesi.html> – Tinglovchilar bilimini elektron nazorat qilish sistemlari.

http://www.Fio.samara.ru/works/25/project4_5/xim2.htm

<http://www.Inftech.webservis.ru> – turli sohalardan o'tkazilgan konferentsiyalarning materiallari.

[http://www.Ito.bitpro.ru/1997/B/B115\(bkb 408.407.12 \).htm](http://www.Ito.bitpro.ru/1997/B/B115(bkb 408.407.12).htm) – turli sohalar bo'yicha o'tkazilgan konferentsiya materiallari.

http://www.Kstu.kz/~4as/articlses/el_book/index.htm

<http://www.A-Z.ru/rocit/17/index.htm> – turli sohalarda o'tkazilgan seminarlarning materiallari.

http://www.Survey.britishcouncil.org/wi/p2066172/cte_frame.asp?/q25 – turli grantlar.

<http://www.Nerungri.edu.ru/muuo/pedmast/cvalify/kurs5.htm> – Internetga kirish kursi bo'yicha o'kuv ko'llanma.

http://www.Abroad.ru/ref_country/us_do.htm – Amerika Ko'shma

Shtatlaridagi masofaviy o'kish kurslari.

<http://www.training.sun.com/US/> - Axborot texnologiyalari bo'yicha masofaviy o'kitish kurslari.

<http://www.Link.msk.ru/book/> - Turli fanlardan masofaviy o'kitish uchun o'kuv materiallari.

http://www.ntu.edu/online/allacurs_ol.asp - Buyuk Britaniyadagi Axborot texnologiyalaridan masofaviy o'kitish kurslari.

<http://www.word2word.com/course.htm> - Turli tillarni o'rganish bo'yicha bepul kurslar (Yuzga yakin tillardan)

<http://www.english-online.org.uk/course.htm> - Ingliz tilini o'rganish bo'yicha bepul masofaviy o'kitish kursi.

http://www.cxm.karelia.ru/index_e.htm - Kishlok xo'jaligi mashinalarini o'rganish bo'yicha masofaviy o'kitish kursi.

<http://www.conted.ox.ac.uk/pp/philosophyonline/> - Falsafaga kirish bo'yicha masofaviy o'kitish kursi.

Masofali o'qitish modellari va ularning turlari.

Masofaviy ta'lif (MT) - bu o'qituvchi va o'quvchi bir biri bilan masofa yoki vakt orqali ajratilgan sababli, informatsion texnologiyalardan fodalanilgan ta'lif turi. Bu ta'lif turini bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lif tashkil qilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoklashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lif uchun mutaxasislar mavjudligi, ta'lif sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lif sohasidagi odatlari.

